

YOZMA NUTQ KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Sharipova Sarvinoz Sayid qizi

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti 3-kurs tayanch doktoranti*

Annotatsiya: *Maqolada o'quvchilar yozma nutq ko'nikmasini shakllantirishning psixologik omillari ya'ni ichki va tashqi nutqni rivojlantirish haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *ichki nutq, tashqi nutq, tafakkur, badiiy matn, ijodiy fikr, ta'lim jarayoni, psixolingvistik.*

Abstract: *The article discusses the psychological factors in the formation of students' written speech skills, namely the development of internal and external speech.*

Keywords: *internal speech, external speech, thinking, artistic text, creative thought, educational process, psycholinguistic.*

Inson nutqining rivojlanishi, mazmundorligi, nutqning nechog'li mantiqiyliigi, umuman, fikrlash qobiliyati uning badiiy adabiyotga munosabati bilan belgilanadi.

XX asrda amalga oshirilgan psixologik tadqiqotlarda o'smirlarning so'z va tasavvurga tayanib mantiqiy fikrlash qobiliyati 11-12, 15- 16 yoshlardan boshlab faollashuvi isbotlangan¹. Yana bir psixolog-olim Ergash G'oziyevning fikricha, 11-14 yoshga yetganda, ya'ni o'smirlilik davrida o'quvchida analitik-sintetik faoliyat jadal sur'at bilan rivojlana boshlaydi. Shu bois ularda sabab va natijani izohlash, mustaqil fikrlash mustahkamlanib boradi. O'quvchi o'rganilayotgan materialning muhim belgilarini ajratishga, umumiy xulosalar chiqarish malakasiga ega bo'ladi.

Psixolingvistik tadqiqotlardan ma'lumki, insonning til qobiliyati to'rt xil kognitiv malakaning o'zaro bog'liqligida rivojlanadi: eshitib tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qib tushunish, fikrni yozma bayon qilish. Shulardan fikrni o'qib tushunish va uni yozma bayon qilish tilning yozma shakli bilan bog'liq.

Matnni yozish nutq yaratish jarayonidir. Mazkur malakalarning har biri insonning bosh miyasidagi turli qismlar yordamida yuzaga chiqadi. Lekin ularning har biri o'zaro bog'liq. Masalan, yozish bosh miyaning peshona bo'limidagi qo'lni harakatlantiruvchi neyronlar yordamida amalga oshiriladi².

¹ Bobokalonov R., Ne'matova G. Ona tili o'qitishning yangi texnologiyasi haqida. – Toshkent: 1998. – 30 b.

² Azimova I. Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. // Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti. III an'anaviy respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiali. – Toshkent: 2019. 215 – 224 b.b.

Nutq ko'pincha ovoz chiqarmasdan, o'ylash jarayonida ham ifodalanadi. Bunday nutq odam o'z ichida gapiradigan (professor P.I.Ivanov ta'biricha), ya'ni passiv nutqdir. Shuning uchun bu ichki nutq o'z-o'ziga qaratilgan bo'ladi va unda ikki kishining qatnashishi shart emas.

Ichki nutqning ahamiyati shundaki, u og'zaki va yozma nutqning asosi sifatida o'ziga xos o'rin tutadi.

Tashqi nutq aktiv fikrlashni talab qiladi. Bunday nutq og'zaki va yozma shaklda amalga oshiriladi.

Yozma nutqni pedagogik jihatdan takomillashtirishdagi ta'lim shaklida diktantlarning xizmati benihoya kattadir. Diktantlarning maktabda o'quvchilarga imlo va punktuatsiya o'qitishdagi katta xizmati shundaki, diktant yozish jarayonida yozuv orqali o'quvchilarning aqliy faoliyati rivojlanadi. O'quvchi o'qituvchi aytib turgan jummalarni va so'zlarni yozadimi yoki o'z fikrini erkin yozadimi, baribir, u ongli ravishda og'zaki nutqni yozma shaklga ko'chiradi. Dastlab o'qituvchi - so'zlovchining nutqini tinglovchi o'quvchi mazmun jihatdan idrok qiladi. So'zlovchining fikrini yozuvga ko'chirish jarayoni boshlanganda esa o'quvchi gapdagi so'zlarning tovush tarkibi va gaplarning ohangiga e'tibor beradi, tovush va harflarni o'zaro qiyoslaydi, ohangni ma'lum tinish belgilari bilan ko'rsatishga harakat qiladi.

O'quvchi diktant yozishda doimo o'zining ichki nutqiga asoslanadi. Yozish jarayonida o'quvchining nutq organlari so'zlarni bilinar-bilinmas talaffuz qilgani holda ularni harflarga ko'chira boshlaydi.

Ma'lum harflar tushirib qoldirilgan so'zlarni to'g'ri yozish talab qilingan mashqlarda ham o'quvchi so'zni avval to'lig'icha ichida talaffuz qiladi va tushirib qoldirilgan tovushga muvofiq keladigan harfni topadi. Shuning uchun ham o'quvchi tovush va harf munosabatini juda yaxshi bilishi lozim bo'ladi.

Shunday qilib, o'quvchi diktant jarayonida so'zlarni tovushlarga ajratish va tovushni harflarga solishtirish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Eng muhimi tovush va harfning bir-biriga muvofiq keladigan va muvofiq kelmaydigan holatlari borligini ajratib oladi. Muvofiq kelmaydigan holatlarning sababini bilib oladi.

Ta'lim jarayoni, asosan, til vositasida kechar ekan, ona tilini o'qitish ta'lim tizimidagi fanlar orasidagi fanlar orasida muhim o'rin tutadi. Boshqa fanlarning o'zlashtirilishi o'quvchining o'z ona tilida yozma matnni, og'zaki matnni tushunish, o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda izchil bayon eta olish ko'nikmasi bilan bevosita bog'liq. Aytish mumkinki, ona tili ta'limi har qanday bosqichdagi ta'limning negizini tashkil etadi. Tilning eng birinchi vazifasi ma'lumotni kodlash va dekodlashdir, ya'ni o'quvchi o'z fikrini to'g'ri ifodalashi kerak va qabul qilingan nutqda berilgan ma'lumotni to'g'ri tushunishi kerak. O'rta maktabdagi ona tili ta'limi tilning aynan shu – birlamchi funksiyasini qo'llash malakasini shakllantirishga qaratilishi kerak.

Ma'lumki, badiiy matn uchun badiiy tafakkur zarur, badiiy tafakkur asosida insonning individual hayotiy tajribasi yotadi, ya'ni ma'lum ruhiy holat, hayotda kuzatilgan ma'lum predmet yoki hodisa bilan assotsiatsiyalanadi. Tabiiyki, professional yozuvchi va maktab

o'quvchisining o'rtasida yosh jihatdan, hayotiy tajriba jihatidan katta farq bor³. Yozuvchi qo'llagan jumla va obrazlar har doim ham maktab o'quvchisi uchun tushunarli bo'lmasligi mumkin. Til ta'limidagi bu nomutanosiblik o'quvchi til malakasining rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Natijada, bola o'z mustaqil fikrini o'z so'zlarni bayon qilmay, odatda eshitgan tayyor jumalardan foydalanishga harakat qiladi. Shu bilan bog'liq holda bola yozishga bo'lgan rag'batini yo'qotib qo'yishi yoki umuman paydo qilmasligi mumkin. Yozma nutqni rivojlantirish uchun tanlangan mashg'ulot mavzulari dars berilayotgan vaqt uchun qiziq bo'lishi kerak. Shunday mavzu tanlanishi kerakki, bola o'sha haqida fikr bildirish istagi kuchli bo'lsin. Mazkur masalalarga bo'lgan qiziqisdan bolaning kognitiv rivojlanishini ta'minlash uchun samarali foydalanish mumkin.

Shuningdek, turli mavzu va uslubdagi matnlar yuzasidan yozma topshiriqlar bajarish o'quvchining yozma nutq haqidagi bilim va tasavvurlarini kengaytiradi. Bunday topshiriqlar matndan ma'lum kommunikativ vazifada qo'llangan so'z va so'z birikmalarini topish, ularning nima uchun qo'llanganligiga izoh berish, matn ichidan matnning bir butunligini ta'minlab turishga xizmat qiladigan vositalarni aniqlash, matn va uning boshqa muallif tomonidan yozilgan bayonini qiyoslash kabi mashqlar yozma nutning charxlanishiga xizmat qiladi.

Bolalar turli omillar orqali, ya'ni atrofdagi odamlar bilan muloqot qilganida, ommaviy axborot vositalarini kuzatganlarida, badiiy asar o'qiganlarida va boshqa yo'llar orqali ongiga singib qolgan qo'llanish chastotasi yuqori bo'lgan so'z va jumalardan foydalanishgan. Bu so'zlar va birikmalar turli uslubga tegishli bo'lishi mumkin. Bolaning uslub haqidagi tasavvuri va ko'nikmasi shakllanib ulgurmaganligini bildiradi. Bolada yozma matn ko'nikmalarini rivojlantirishda turli uslubdagi matnlarni o'qitishdan tashqari uslubdan uslubga farqlanuvchi birliklarni o'rgatib borish maqsadga muvofiq.

Bunda berilayotgan topshiriqlar bolalardagi qabul qilish jarayoniga qanchalik ta'sir qilishini hisobga olish zarur. Bu haqida rus olimasi A. Zalevskaya shunday deydi: Matnni o'qib qabul qilish va eshitib qabul qilish miyaga ta'sir qilayotgan ikki xil signalning turli sezuvchi kanallar orqali ishlanishi bilan farq qiladi. O'z o'rnida ularning har biri o'zining afzal tomonlariga ega. Xususan, o'qib qabul qilinayotgan ma'lumot miqdorini nazorat qilib turish mumkin, shuningdek, signalni segmentatsiyalash o'qib qabul qilishda osonroq kechadi. Eshitib qabul qilish esa ohangning mavjudligi bilan nisbatan boyroq⁴.

Ona tili darslarini tashkil qilish jarayonida o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri nutqiy va kommunikativ malakalarini, ilmiy, ijodiy fikrlashini matn turlari orqali olgan bilimlariga asoslanib yoza olish qobiliyatini rivojlantirish bilan, ularning ilmiy, ijodiy tafakkur qilishga o'rgatish bilan chambarchas bog'liq. O'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini matn turlari orqali takomillashtirishda ularning egallagan bilimi

³ Azimova I. Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. // Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti. III an'anaviy respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiali. – Toshkent: 2019. 215 – 224 b.b.

⁴ Ziyodova T. The new technology of system-based language learning and text composition // Science and the world. – Volgograd: 2016. 65 – 67-b.b.

bilan bir qatorda ijodiy, ilmiy fikrlashini bayon qilinishi talab qilinadi. Bu jarayonda matn mazmunini aniq bayon qilish, tahlil qilish hamda qayta bexato yoza olish nazarda tutiladi. Bu kabi vazifalar asosida ilmiy va ijodiy dunyoqarashni, tafakkurni rivojlantirish muhim o'rin egallaydi. O'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish muammolari pedagog olimlar R.G'. Safarova⁵, N.Ataqulova⁶lar tomonidan o'rganilgan. O'quvchilarda ilmiy dunyoqarash rivojlanishi uchun ko'proq ilmiy adabiyotlar bilan tanishish zarur deb hisoblaymiz. Badiiy matn vositasida o'quvchilarda ijodiy tafakkur, obrazli fikrlash badiiy idrok qilish ko'nikmasining egallaganligi muayyan bosqichlarda amalga oshadi. Professor E.G'oziyev "Ijodiy tafakkur - murakkab bilish faoliyatidan biri bo'lib, tadrijiy ravishda, o'zaro bog'langan izchil protsesslardan tashkil topadi"⁷. B.X.Raximovning doktorlik dissertatsiyasida keltirilishicha, "O'quvchilarning ijodiy ishlari tafakkurni o'stirish omili ekanligi, o'quvchilarni og'zaki va yozma ijodiy ishlarga undash ularning kamoloti yo'lida muhim ahamiyat kasb etishi tekshiriladi. Mustaqil faoliyat va ijodiy ishlar o'z-o'zidan erkin tafakkurni talab qiladi. Mustaqil fikri, o'z nuqtai nazari bo'lmagan o'quvchi ijod qilolmaydi, mustaqil faoliyat yurita olmaydi"⁸. Ilmiy va ijodiy tafakkur qilish uchun o'quvchilarni ilmiy, badiiy kitoblarni o'qish, o'rganish bilan, kitobxonlik bilan shug'ullanishga, kitob mutolaasiga qiziqtirish uyg'otish ijobiy natija beradi.

Xullas, o'quvchilarning ilmiy va ijodiy tafakkur qilish qobiliyatlarini rivojlantirish ularda ilmiy fikrlash va kreativ fikrlash salohiyatini o'stiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bobokalonov R., Ne'matova G. Ona tili o'qitishning yangi texnologiyasi haqida. – Toshkent: 1998. – 30 b.
2. Azimova I. Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. // Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti. III an'anaviy respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiali. – Toshkent: 2019. 215 – 224 b.b.
3. Fuzailov S., Xudoyberganova M.. Ona tili (3-sinf uchun darslik). –Toshkent:
4. Ziyodova T. Tilni tizimli o'rganishda o'quvchilarda kommunikativ savodxonlikni oshirish bosqichlari// Xalq ta'limi: 2015. 3-son.
5. Muhitdinova H. Ta'lim bosqichlarida o'zbek tili o'qitilishi uzluksizligini ta'minlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish. P.f.d. diss. – Toshkent,

⁵ Сафарова Р.Г. Шахсни шакллантириш омиллари\\ таълим тараққиёти Ж.. 2001. -Б.60-63.

⁶ Атакулова Н.А. Таълим жараёнида ук,увчиларда илмий дунёқарашни шакллантириш. Монография.- Т. 2016.- Б.11.

⁷ Газиёв Э.Г. Управление учебной деятельностью школьников.-Т.,Фан,1986.-С 66

⁸Рахимов Б.Х. Талаба ёшларни илмий тадқиқот ишларига юналтиришнинг ижтимоий педагогик асослари.монография.Т.Фан.2007.Б 11.-20Б.

2011.

6. Атакулова Н.А. Таълим жараёнида ук,увчиларда илмий дунёкарашни шакллантириш. Монография.-Т. 2016.- Б.11.
7. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsplari va metodlari. – Toshkent:
8. Сафарова Р.Г. Шахсни шакллантириш омиллари\\ таълим тараккиёти Ж.. 2001. -Б.60-63.
9. Газиев Э.Г.Управление учебной деятельностью школьников.-Т.,Фан,1986.-С 66
10. Рахимов Б.Х. Талаба ёшларни илмий тадқиқот ишларига юналтиришнинг ижтимоий педагогик асослари. монография. Т.Фан.2007.Б 11.-20Б.